MARKAZIY OSIYODA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VA TRANSCHEGARAVIY SUV MUAMMOLARINI HAL ETISHNING DIPLOMATIK MEXANIZMLARI

Jo‘rayeva Shahina Narzullayevna
O‘zDJTU Siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: Shahrus8689@gmail.com
Raxmatova Go‘zal Akmalovna
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti
sotsiologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: guzall.bell@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning diplomatik-huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, Orol dengizi qurishi oqibatlari, global iqlim o‘zgarishining mintaqaviy ekologik jarayonlarga ta’siri, yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda suv-energetika-oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslari, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi, Suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlatlararo komissiya faoliyati va xalqaro suv huquqi normalarining ahamiyati mualliflik nuqtayi nazaridan baholanadi. Mintaqada ekologik xavfsizlikni mustahkamlash uchun muntazam diplomatik muloqot, ochiq axborot almashinuvi, o‘zaro manfaatlarni hisobga oluvchi kelishuvlar va qo‘shma ekologik loyihalarni rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, ekologik xavfsizlik, transchegaraviy suv resurslari, suv diplomatiyasi, Orol dengizi, xalqaro suv huquqi, mintaqaviy hamkorlik, iqlim o‘zgarishi, suv-energetika-oziq-ovqat xavfsizligi, diplomatik mexanizmlar.

Аннотация. В статье анализируются дипломатические и правовые механизмы обеспечения экологической безопасности в Центральной Азии, рационального использования трансграничных водных ресурсов и развития регионального сотрудничества. Особое внимание уделяется последствиям высыхания Аральского моря, влиянию глобального изменения климата на экологическую ситуацию в регионе, согласованию интересов государств

DOI: 10.5281/zenodo.24240606

верхнего и нижнего течения, а также взаимосвязи водной, энергетической и продовольственной безопасности. Рассматриваются международные инициативы Узбекистана, деятельность Международного фонда спасения Арала и Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии. Обосновывается необходимость совершенствования дипломатических механизмов, развития открытого обмена информацией, соблюдения норм международного водного права и формирования взаимовыгодных соглашений между государствами региона.

Ключевые слова: Центральная Азия, экологическая безопасность, трансграничные водные ресурсы, водная дипломатия, Аральское море, международное водное право, региональное сотрудничество, изменение климата, водно-энергетическая и продовольственная безопасность, дипломатические механизмы.

Abstract. This article examines the diplomatic and legal mechanisms for ensuring environmental security, promoting the rational use of transboundary water resources, and strengthening regional cooperation in Central Asia. Particular attention is paid to the consequences of the Aral Sea disaster, the impact of global climate change on the regional environment, the coordination of interests between upstream and downstream countries, and the interrelationship between water, energy, and food security. The article also explores Uzbekistan's international initiatives, the activities of the International Fund for Saving the Aral Sea, and the Interstate Commission for Water Coordination. The study emphasizes the need to improve diplomatic mechanisms, ensure transparent information exchange, strengthen compliance with international water law, and develop mutually beneficial agreements among Central Asian states.

Keywords: Central Asia, environmental security, transboundary water resources, water diplomacy, Aral Sea, international water law, regional cooperation, climate change, water-energy-food security, diplomatic mechanisms.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda suv resurslari taqchilligi, ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar tobora dolzarb tus olmoqda. Mazkur jarayonlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularning ta’siri bir davlat hududi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, daryolar oqimi, suvdan foydalanish tartibi, yerlarning degradatsiyasi va atmosfera jarayonlari orqali butun mintaqaga tarqaladi. Shu sababli ekologik xavfsizlik masalasini faqat milliy siyosat doirasida hal etish imkoniyati cheklangan. Bu borada davlatlar o‘rtasidagi

kelishuvlar, o‘zaro ishonch va samarali diplomatik mexanizmlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyodagi suv muammosining eng murakkab tomoni suvning tabiiy taqsimotidagina emas, balki undan foydalanish bo‘yicha davlatlarning iqtisodiy va strategik manfaatlari turlicha ekanligidadir. Xususan, yuqori oqimda joylashgan davlatlar uchun suv resurslari, avvalo, energetika ishlab chiqarish va gidrotexnik inshootlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, quyi oqim mamlakatlari uchun qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi ehtiyojlarini qondirish ustuvor hisoblanadi. Demak, muammoni hal qilishda bir tomonning manfaatlarini ikkinchisidan ustun qo‘yish emas, balki umumiy manfaatlar muvozanatini ta’minlash asosiy tamoyil bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikka oid siyosatida aynan shu yondashuv muhim o‘rin egallaydi. PrezidentShavkat Mirziyoyev 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida O‘zbekiston mintaqa davlatlari bilan barcha masalalarda, jumladan, suv muammolarini hal etishda ham o‘zaro murosaga tayyor ekanligini ta’kidlagan edi. Davlatimiz rahbari suv masalasini hal etishda mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa maqbul yechim mavjud emasligiga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanishga oid xalqaro konvensiyalarni qo‘llab-quvvatlashi ham mazkur siyosiy pozitsiyaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

Markaziy Osiyodagi ekologik muammolar haqida so‘z borganda, Orol dengizi fojiasini chetlab o‘tish mumkin emas. Orolning qurishi nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqaning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Dengizning chekinishi natijasida yuzaga kelgan tuz va chang bo‘ronlari, tuproq sho‘rlanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolar ekologik inqirozning uzoq muddatli oqibatlarini namoyon etmoqda.

Orol fojiasini faqat o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan xatolar natijasi sifatida baholash yetarli emas. Bugungi kunda uning oqibatlarini yumshatish, Orolbo‘yi hududida yashovchi aholining turmush sharoitini yaxshilash va ekologik barqarorlikni tiklash mintaqa davlatlarining umumiy mas’uliyatiga aylangan. Ayniqsa, Orol dengizining qurigan tubida yuzaga kelayotgan ekologik jarayonlar transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgani sababli bu yo‘nalishdagi tadbirlarni xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston tomonidan Orolbo‘yida amalga oshirilayotgan ko‘kalamzorlashtirish ishlari, jumladan, qurigan dengiz tubida saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklarini ekish orqali yashil qoplamalar barpo etilishi muhim amaliy

ahamiyatga ega. Bunday chora-tadbirlarning natijasi faqat ekilgan daraxtlar yoki o‘simliklar soni bilan o‘lchanmasligi kerak. Menimcha, ularning haqiqiy samaradorligi tuproqning barqarorlashuvi, chang va tuz ko‘chishining kamayishi, biologik muhitning tiklanishi hamda mahalliy aholining hayot sifatidagi ijobiy o‘zgarishlar orqali baholanishi lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusini ilgari surgan edi. Shuningdek, ushbu hujjat qabul qilingan sanani Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash taklifini bildirgan edi [2].

Mazkur tashabbusning ahamiyatini, avvalo, Orol muammosini xalqaro kun tartibida saqlab qolish va unga nisbatan amaliy yondashuvni kuchaytirish imkoniyati bilan izohlash mumkin. Chunki ekologik inqirozning oqibatlari bir davlatning moliyaviy va texnologik imkoniyatlari bilan to‘liq bartaraf etilishi qiyin bo‘lgan darajaga yetgan. Xalqaro tashkilotlar, donor mamlakatlar va ilmiy muassasalar ishtiroki esa yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik monitoringni takomillashtirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasining BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ham mintaqaviy ekologik muammolarning xalqaro darajada e’tirof etilayotganidan dalolat beradi [3]. Biroq xalqaro rezolyutsiyalarning qabul qilinishi o‘z-o‘zidan ekologik vaziyatni yaxshilamaydi. Ularning amaliy natijasi davlatlar tomonidan zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilishi, ajratilayotgan resurslarning samarali ishlatilishi va qo‘shma loyihalarning izchil amalga oshirilishiga bog‘liq.

Markaziy Osiyoda suv diplomatiyasining samaradorligi davlatlar o‘rtasidagi siyosiy muloqotning muntazamligi va qabul qilingan kelishuvlarning amalda bajarilishi bilan belgilanadi. Shu sababli mavjud xalqaro va mintaqaviy institutlarning faoliyatini takomillashtirish, ularning qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

OQXJ faoliyatini modernizatsiya qilishda uchta yo‘nalishga alohida e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, jamg‘arma doirasidagi qarorlarning amaliy ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish kerak. Ikkinchidan, davlatlar o‘rtasida ekologik va gidrologik ma’lumotlar almashinuvi tizimini yanada ochiq va ishonchli shaklga keltirish zarur. Uchinchidan, moliyalashtirilayotgan loyihalarning natijalarini umumiy mintaqaviy manfaatlar nuqtayi nazaridan baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, mintaqada amalga oshiriladigan yirik gidrotexnik loyihalar yuzasidan oldindan maslahatlashuvlar o‘tkazish amaliyotini kuchaytirish lozim. Bunday loyihalar faqat ularni amalga oshirayotgan davlatning ichki iqtisodiy yoki energetik ehtiyojlari asosida baholanmasligi kerak. Ularning quyi oqimdagi davlatlarga, daryo oqimining mavsumiy taqsimotiga, ekologik muhitga va aholi turmush sharoitiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri ham hisobga olinishi zarur.

Bu jihatdan Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali masalasi alohida e’tiborga loyiq. Mazkur loyiha Amudaryo suv resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq mintaqaviy munosabatlarga yangi omil sifatida kirib kelmoqda. Kanalning ishga tushirilishi va undan foydalanish tartibi Amudaryo havzasidagi suv taqsimotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli ushbu masalani faqat texnik yoki iqtisodiy muammo sifatida ko‘rib chiqish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Qo‘shtepa kanali masalasida eng maqbul yo‘l qarama-qarshilikni kuchaytirish emas, balki Afg‘onistonni ham mintaqaviy suv muloqotining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Buning uchun kanalning suv olish hajmi, undan foydalanish rejimi va Amudaryo havzasidagi ekologik oqibatlar bo‘yicha tegishli ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish zarur. Xalqaro suv huquqining tegishli tamoyillari asosida maslahatlashuvlar tashkil etilishi esa barcha manfaatdor tomonlar uchun maqbul yechimlarni izlashga imkon beradi.

Bu jarayonda xalqaro huquq normalariga tayanish muhim. Xususan, transchegaraviy suv oqimlaridan oqilona va adolatli foydalanish, boshqa davlatlarga sezilarli zarar yetkazmaslik, oldindan xabardor qilish, maslahatlashuv va hamkorlik qilish kabi tamoyillar davlatlararo munosabatlarning huquqiy asosini tashkil etishi lozim. Shu bilan birga, ushbu tamoyillarni amalda qo‘llashda havzaning tabiiy xususiyatlari, davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va aholi ehtiyojlari ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv munosabatlarining yana bir muhim jihati suv, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdir. Mintaqa davlatlarining geografik joylashuvi va iqtisodiy ixtisoslashuvi ushbu uch yo‘nalishda turli manfaatlar shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Yuqori oqimda joylashgan Qirg‘iziston va Tojikiston uchun suv resurslari gidroenergetika ishlab chiqarishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Quyi oqimdagi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston uchun esa suvning qishloq xo‘jaligi mavsumida yetarli miqdorda mavjud bo‘lishi oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq.

Muammoning mohiyati shundaki, energetika ishlab chiqarish uchun suvdan foydalanish rejimi bilan sug‘orish ehtiyojlari har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Masalan, qish mavsumida elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojning

ortishi yuqori oqim davlatlarini suv omborlaridan ko‘proq foydalanishga undashi mumkin. Biroq bunday holat quyi oqim davlatlarining yozgi sug‘orish ehtiyojlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli suv omborlarining yozgi va qishki ish rejimlarini davlatlararo kelishuvlar asosida muvofiqlashtirish zarur. Bunda suv almashinuvi bilan bir qatorda elektr energiyasi, yoqilg‘i va boshqa iqtisodiy resurslar bo‘yicha o‘zaro manfaatli mexanizmlarni ishlab chiqish ham muhimdir.

Bunday hamkorlikning asosiy afzalligi shundaki, har bir davlat o‘zining milliy manfaatlarini himoya qilgan holda mintaqaviy barqarorlikka ham hissa qo‘shadi. Demak, suv resurslarini taqsimlash masalasiga faqat tabiiy boylikni bo‘lishish sifatida emas, balki o‘zaro iqtisodiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish vositasi sifatida qarash lozim.

Markaziy Osiyo davlatlarining suv sohasidagi hamkorlik tajribasi boshqa mintaqalar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2026-yil 19-oktabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Universiteti tomonidan “Dunyo mintaqalari bir-biridan o‘rganishi mumkin: samarali jarayonlar tajribasi bilan almashishning umumiy asoslari sari” mavzusida tashkil etilgan seminarda Markaziy Osiyo va Janubiy Afrika misolida suv sohasidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Tadbirda ICWC Ilmiy-axborot markazi (SIC ICWC) direktori D. Ziganshina 1992-yilgi Olmaota bitimi asosida tashkil etilgan Suv xo‘jaligini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlatlararo komissiya (ICWC) faoliyati va uning mintaqaviy suv boshqaruvidagi o‘rniga to‘xtaldi. Taqdimotda komissiyaning o‘ttiz yildan ortiq vaqt davomida hamkorlikning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qilgan mexanizmlari, jumladan, mavsumiy suv olish limitlarini belgilash, suv omborlari ish rejimlarini muvofiqlashtirish, real vaqt rejimida ma’lumot almashish va qabul qilingan qarorlarni amaldagi vaziyatga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish tajribasi yoritildi. Shuningdek, “Amudaryo” va “Sirdaryo” havza suv xo‘jaligi birlashmalari (BWO) hamda SIC ICWCning ilmiy-axborot ko‘magi alohida ta’kidlandi [4].

Ushbu tajribaga baho berishda, avvalo, uning institutsional davomiyligiga e’tibor qaratish lozim. Chunki Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy sharoitlar o‘zgarib turganiga qaramay, suv xo‘jaligi bo‘yicha muayyan muvofiqlashtirish mexanizmlarining saqlanib qolishi o‘zaro hamkorlikning zarurligini ko‘rsatadi. Albatta, ICWC faoliyatida takomillashtirish talab qilinadigan jihatlar mavjud. Biroq uning tajribasi davlatlar o‘rtasida doimiy muloqot va amaliy hamkorlikni ta’minlash mumkinligini tasdiqlaydi.

Ayniqsa, real vaqt rejimida ma’lumot almashish va suv resurslarining amaldagi holatiga qarab qarorlarni qayta ko‘rib chiqish mexanizmlari muhimdir.

Chunki suv bilan bog‘liq vaziyat doimiy va o‘zgarmas xususiyatga ega emas. Iqlim sharoiti, yog‘ingarchilik miqdori, muzliklarning erishi va mavsumiy ehtiyojlar suv resurslarining mavjud hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, avvaldan belgilangan rejalarni o‘zgarmas qoida sifatida qo‘llash emas, balki mavjud sharoitga moslashtirib borish samarali boshqaruvning muhim shartidir.

Markaziy Osiyo tajribasining Janubiy Afrika kabi boshqa mintaqalar uchun ham qiziqarli ekanligini aynan shu jihatlar bilan izohlash mumkin. Ya’ni suv tanqisligi mavjud hududlarda davlatlararo hamkorlikni faqat siyosiy bayonotlar asosida emas, balki doimiy ishlaydigan institutsional mexanizmlar orqali tashkil etish zarur. Bu tajribaning xalqaro ahamiyati ham shundaki, u suv resurslarini boshqarishda kelishuvlarning uzluksizligi, ilmiy asoslangan qarorlar va axborot almashinuvining muhimligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksida suv masalalari bo‘yicha davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda suv resurslarini oqilona boshqarish va ulardan tejamkor foydalanish muhim yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Jumladan, Kodeksning 2-moddasida mazkur masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, 3-moddasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida suv to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvorlik qilishi mustahkamlangan [5].

Ushbu normalarning ahamiyati shundaki, ular suv resurslarini boshqarishda milliy manfaatlar va xalqaro majburiyatlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga huquqiy asos yaratadi. Ayniqsa, transchegaraviy suv masalalarida davlatlarning o‘zaro majburiyatlariga rioya qilishi, xalqaro shartnomalar va kelishuvlarning ustuvorligini tan olishi ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida ham ekologik xavfsizlik va fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi mustahkamlangan. Unga ko‘ra, har kim qulay atrof-muhitga va uning holati haqidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi [6].

Mazkur konstitutsiyaviy qoida ekologik xavfsizlikni faqat davlat organlarining vazifasi sifatida emas, balki inson huquqlari va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq muhim masala sifatida belgilaydi. Ayniqsa, ekologik axborotning ishonchliligi va ochiqligi masalasi transchegaraviy suv diplomatiyasida ham katta ahamiyatga ega. Chunki suv resurslarining miqdori, sifati, ifloslanish darajasi va mavsumiy o‘zgarishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘z vaqtida almashilishi davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy tamoyilning mintaqaviy hamkorlikdagi amaliy ifodasi qo‘shni davlatlar bilan ekologik monitoring natijalarini almashish, suv sifati bo‘yicha yagona kuzatuv yondashuvlarini shakllantirish va ekologik xavflar to‘g‘risida o‘z vaqtida axborot berish mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bunday hamkorlik nafaqat davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni kamaytiradi, balki ekologik xavflarga nisbatan tezkor va asoslangan choralar ko‘rish imkonini ham oshiradi.

Orolbo‘yida ikki million gektardan ortiq maydonda yashil qoplamalar va himoya o‘rmonzorlari barpo etishga qaratilgan ishlar ham davlatning atrof-muhitni tiklash borasidagi majburiyatlarini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Bu jarayonda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini ilmiy asoslangan ekologik monitoring, suvdan oqilona foydalanish va mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va transchegaraviy suv muammolarini hal etish faqat alohida davlatlarning ichki imkoniyatlariga bog‘liq emas. Bu jarayon, eng avvalo, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy ishonch, xalqaro huquq normalariga hurmat va uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mintaqada suv bilan bog‘liq kelishmovchiliklarning asosiy sabablaridan biri tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan bir qatorda, ulardan foydalanish bo‘yicha iqtisodiy manfaatlarning turlicha ekanligidir. Shu bois yuqori va quyi oqim davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda bir tomonlama manfaatlardan voz kechish emas, balki o‘zaro manfaatlarni uyg‘unlashtiradigan mexanizmlarni ishlab chiqish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng maqbul yo‘li suv resurslarini davlatlar o‘rtasidagi raqobat manbai emas, balki hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik omili sifatida qabul qilishdan iborat. Mintaqadagi har qanday davlatning suv sohasida erishgan yutug‘i boshqa davlatlarning manfaatlariga zid bo‘lmagan taqdirdagina uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay oladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan diplomatik tashabbuslar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, milliy qonunchilikni takomillashtirish va Orolbo‘yida ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar mintaqaviy ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu sa’y-harakatlarning yakuniy samarasi davlatlarning umumiy maqsad yo‘lida qanchalik kelisha olishi va qabul qilingan qarorlarni amalda bajarishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabyotar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi https://share.google/jNIhGTP2U3iZn1xto.
2. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida o‘zbek tilida nutqi https://share.google/fKbvUavblP1Bn2Vtl.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi https://share.google/MwSq5wDoi6ro17BEN.
4. Central Asia's Experience in Water Cooperation Presented at a United Nations University Workshop https://share.google/2FXouFGt7SvnUQ0FF.
5. O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi http://lex.uz//uz/docs/-7655343
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://constitution.uz/oz/clause/index.